

Ismoilov Feruz Shokirovich

"Osiyo" xalqaro universiteti magistri

Ilmiy Maqola Turi Ampirik , Shaxsiy Kuzatuv Va Tajribalar Asosida

Annotatsiya: Men ushbu maqolada o'zimning shaxsiy tajribam , kuzatuvlarim va turizm sohasidagi faoliyatimdan kelib chiqqan holda O'zbekistonning tijorat eksportini turizm yordamida oshirish mumkin ekanligini tushuntirib va izohlab beraman . Bu maqolada turizmning O'zbekistonda savdo rivojlanishidagi ahamiyati o'rganiladi. Turizm, tovar va xizmatlar sotishini raqobatlash, yangi ish o'rniiga ega bo'lish va umumiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish orqali mamlakat iqtisodiyatiga sezilarli ta'sir qiladi.

KIRISH

Men Ismoilov Feruz Shokirovich ushbu sohada va turizmda 2018 yildan beri faoliyat olib boraman. Faoliyatimni havaskor gid -ekskursavod va hamroh tarjimon sifatida boshlab ayni damda CENTER GIDOV EKSURSAVODOV MCHJ ning rahbari sifatida davom ettirmoqdamman . Yurtimizning Toshkent shahri va viloyati , Samarqand shahri va viloyati , Navoiy viloyati , Buxoro shahri va viloyatida asosiy izlanishlarimni olib bordim .Xorijlik mehmonlarimizga yurtimiz va xalqimiz hayotini shu bilan birgalikda ular ishlab chiqargan hunarmandchilik namunalari va esdalik sovg'alarini ko'rsatib ularni tijoratini yo'lga qo'ydim . Juda ko'p miqdorda Tovar va moddiy buyumlar sotilishiga ,shu bilan birgalikda turli xizmatlarning sotuviga ham erishdim .Ayni fursatda xorijlik mehmonlarimiz soni va ko'lami kengaymoqda . Ushbu fursat va imkoniyatdan O'zbekistonning tijorat eksport salohiyatini va imkoniyatlarini ko'rsatishga va tushuntirishga harakat qilishimiz kerak ! Nafaqat yurtimiz tarixi boy madaniy me'ros obyektlarini ko'rsatishimiz balki ishlab chiqariladigan Tovar va xizmatlarni ko'rsatish va tushuntirib berishga harakat qilishimiz lozim !

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Ilmiy tadqiqot jarayonida o'rganish va bilishning obyektiv usulidan foydalanildi.

Ushbu tadqiqot jarayonida O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishida turizmning ahamiyati obyektiv ochib berildi. Bugungi kunda turizmning rivojlanish bosqichlari mantiqiy izchiklik jihatidan tadqiq qilinadi. Ayni vaqtarda Turizm sohasidagi qonunlar va hurmatli prezidentimiz qarorlari metodologik jihatdan olindi.

Muhokama va natijalar.

Jonajon yurtimizda oxirgi 2022-2023 -yillarda olib borgan o'z tajribam va kuzatuvlarimga asosan aytishim mumkinki ,O'zbekiston hududiga ko'proq Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston respublikasidan ko'pgina mehmonlar tashrif buyurmoqda .Ushbu yillarda ularning soni 4 baravargacha oshdi .Ushbu mehmonlarimizga ayni fursat xalqimiz nima ishlab chiqarishi va nimalar bilan shug'ullanishi juda qiziqdir

.Kunlik tur sayohat dasturimizda mavjud bo'lgan ob'yektlardan tashqari ularning dasturida mavjud bo'lgan bo'sh vaqtidan foydalanib mahalliy bozorlarimizga taklif etaman .Ushbu noodatiy ko'zda tutilmagan va sayohat dasturimizda yozilmagan taklifimiz ko'pchilikka maql bo'ladi va ular bilan mahalliy bozorlarimizga qisqa ekskursiya sayohat qilamiz . Mehmonlarning qiziqishining asosiy sababi ularning bozorlarida ayni fursatda O'zbekiston dala va bo'g'larida yetishtiriluvchi sabzavot va mevalarni ko'rsatishga ,ularning quritilgan ko'rinishlarini ko'rsatib tanishtirib o'tamiz . Mahsulotlarning xilma xilligini ko'rib va ularda mavjud bo'lмаган mahsulotlarni yeb tatib ko'rshadi . Shuningdek bazida aloqalar o'rnati,ko'p miqdorda mahsulotni yetkazib berish to'g'risidagi og'zaki kelishuvlar tuziladi .Garchi ushbu taklif va harakatlar xalqaro ekspazitsiya bo'lmasa ham , lekin hark un va tez -tez takrorlansa natijasi juda yuqori effekt bermoqda . Mahalliy bozordan tashqari hunarmandchilik markazlariga qisqa tashriflar amalga oshirmoqdamiz ,masalan Buxoro qorako'l terisidan ishlab chiqarish markaziga borib turamiz ushbu kichik ishlab chiqarish sexlarida mehmonlarimiz o'zlariga yoqqan Qorako'l terisidan ishlangan buyumlarni sotib olishadi va yetqazib berish talabi bilan 2-3 qo'shimcha kiyimlarni buyurtma berishadi . O'zbek mahsulot ishlab chiqaruvchilari va hunarmandlari katta salohiyatga egadir . Biz turizm vakillari ularga o'z salohiyatlarini ko'rsatishda va ishlab chiqqagan tovar ,xizmatlarini xorijlik iste'molchilarga ko'rsatishlariga va yangi bozorlar xorijdan hamkorlar topishlarida yordam berishimiz , shu bilan birgalikda O'zbekiston mahsulotlari eksportini ko'payishiga o'z hissamizni qo'shgan olishimiz kerak !

Natijalar.Agarda har bir turist sifatida tashrif buyuruvchi mehmonga yoki mehmonlarga bo'lajak iste'molchi sifatida qarasak va ulgurji xaridor ,hamkor deb e'tibor berib ,unga yangi va ularga qiziq bo'lgan tovar , shuningdek yangi ochilgan turistik obyektlarni ko'rsata olsak bu tijorat eksportimiz hamda halpi eksportdan tushadigan daromadlarning o'sishiga ,aholi bandligining ortishiga ,ishsizlikning kamayishiga va tijorat daromadlarining ko'payishiga olib keladi .

Xulosa.Fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak O'zbekiston eksport tijoratining oshishida barchamizning yani ishlab chiqaruvchilar va turizm xodimlarining birgalikdagi harakatlari katta samaralar ,natijalar va daromadlarga olib keladi .

O'zbekiston tijiratining turizm yordamida yanada oshirish uchun bir necha muammolarni yechish kerak. Bu muammolar qatoriga mavsumiy turistlar oqimi va bu mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun biroz noqulaylik keltirib chiqaradi.

Infrastrukturaning yetarlicha rivojlanmaganligi, transport sohasidagi muammolar ham tijoratning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda . transportning yangicha turlarini tadbiq etish ushbu muammolarning yechimi bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR :

1.O'zbekiston Prezidenti va hukumatining trurizm sohasini rivojlantirish va imkoniyatlar yaratish to'g'risidagi buyruq va qarorlari .

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6 ISSUE-11 (30- November)**

2. Uzsatat.uz ning turizm va turistlar to'grisidagi ma'lumotlari
3. CENTER GIDOV EKSKURSAVODOV MCHJ ning rahbarining hujjatlari .Ilova